



## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI

Abdumalikov Fazliddin

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti

4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7302697>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> October 2022

Accepted: 04<sup>th</sup> November 2022

Online: 07<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Jadid, xalq maorifi, milliy ma'naviyat, ma'rifatparvar, axloqiy tarbiya

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan biri hisoblanmish Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti, ijodiy faoliyati hamda pedagogik qarashlari haqida ma'lumot beriladi.*

Mamlakatimiz mustaqillikka yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida: o'zlikni anglash, ma'naviy – ma'rifiy qadriyatlarini chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalgam oshirildi. Manaviy hayotni yuksaltirishda yoshlarning talim-tarbiyasi, dunyoqarashi, tarixiy o'tmishimizni, milliy qadriyatlarimizni anglash davlat ahamiyatiga ega bolgan masalalar sirasiga aylandi.

Jadid pedagoglari ham yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Shu manoda, Farg'ona vodiysi jadidchi - ma'rifatparvarlarining qarashlari asosida talabalar milliy ma'naviyatini shakllantirish mumkin. Hamza Hakimzoda Niyoziy ham ana shunday jadidlarning yetuk namoyondalaridan biri hisoblanadi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida tug'ildi. U yoshlikdan o'qishga berilib, 12 yoshida xat savodli bo'ladi. 1906-yilda madrasaga kirib o'qidi, keyin mustaqil ravishda Lutfiy,

Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muhimiy, Furqat asarlarini o'qib o'rgandi.

Hamza Hakimzoda 1911-yilda Qo'qonda Hojibek guzarida yangi usulda maktab ochib, o'qituvchi bo'lib ishladi. 1913-1914 yillarda Afg'oniston, Hindiston mamlakatlarida, Makka va Madina, Shom, Bayrut, Istanbul, Odessa shaharlarida safarda bo'ldi. Safardan qaytgach, 1915-yilda Shohimardonda maktab ochib, o'qituvchilikni davom ettirdi.

Hamza Hakimzoda pedagogik ish bilan birga, ijodiy ish bilan ham shug'ullanib, 1915-1916 yillar davomida „Oq gul“, „qizil gul“, „Pushti gul“, „Sariq gul“ she'riy to'plamlarini, „Milliy roman yoxud yangi saodat“, „Zaharli hayot“ dramatik asarlarini yaratadi va ularda pedagogik g'oyalarini bayon etadi.

Hamza Hakimzoda Shohimardonda ma'rifat dushmanlari tomonidan 1929-yil 18-mart kuni o'ldiriladi.

Hamza Hakimzoda o'z pedagogik qarashlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish, maorifning yangi



tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. U o'z tajribasiga suyanagan holda, bolalarni ilmli, odobli qilib tarbiyalash va hunarga o'rgatish, maktabda dunyoviy fanlar o'qitilish lozimligini aytdi. Uning fikricha, maktabda aqliy tarbiyada bolalar tabiat hodisalarini, ularning o'zaro bog'liqligini bilishi kerak. Axloqiy tarbiyada bolalarda insonparvarlik tuyg'usini rivoj toptirish lozim. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib etishadilar.

Hamza Hakimzoda pedagogik qarashlarida oila muhitida bolani tarbiyalash masalasi alohida o'rinda turadi. Uning uqtirishicha, bola barkamol inson, go'zal axloqli bo'lib etishishi uchun oilada sog'lom muxit, tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Shundagina oilada bola axloqli, go'zal xulqli, jamiyatga, xalqga munosib farzand bo'lib etishadi.

Hamza Hakimzoda bolalarni Onani xurmat qilishga da'vat qiladi. Zero, Ona ularning mehriboni, g'amxo'ridir. U deydi:

Jonu dilda asradi byuni suyub,  
Dedi bizni, boshqa orzuni qo'yub.  
Ya'ni yo'q bizga onadek mehribon,  
Sinaga qalqon, bosh uzra soyabon.  
Biz ham lozim ani shod aylamak,  
Bizga qilgan xizmatin yod aylamak.

Hamza Hakimzoda bolada to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik va sabrlilik hislatini tarbiyalashni tavsiya etadi. Uning fikricha, to'g'ri so'zli kishi har joyda e'tiborli, dili, yuzi ravshan, izzat-hurmatda bo'ladi. U deydi:

To'g'ri so'zla, ey o'g'il, til burmagil  
yolg'onga hech,  
Bir masal bor: „To'g'ri so'zlar boshni  
kesmas qilich“.

## References:

1. U.Dolimov Turkistonda jadid maktablari.- T:Universitet 2006
2. Karimov N. Xamza va Cho'lpon // Uzbekiston adabiyoti va san`ati.-1999.-18 iyun.
3. Maxmudov O. Usuli jadidni ixtiro kilub turib, yana boshklardan shukoyat kilguchilarga taajjub // Sadoyi Fargona. -1914- 25 iyul.
4. Ziyoev X. Jadidlar xarakatining siyosiy va ijtimoiy-iktisodiy zamini (XIX asr oxiri XX asr boshlari) //Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustakillik va tarakkiyot uchun kurash.- T Universitet,1999